

Chinor daraxtining morfologik xususiyatlari
Jumayeva Dilnoza Abdusattor qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Biologiya(turlari buyicha) 3bosqich
jumayevad34@gmail.com

Kalit so'zlar; manzarali daraxt, gullari, barg, kurtak, bir jinsli, baland bo'lyi, serbarg, tur, yong'oqcha, tuklar, novda, urug', cgangchilar, shamol yordamida changlanadigan, dag'al tuk;lar, bir uyli.

Annotatsiya: Chinor- chinordoshlar oilasiga mansuz manzarali daraxt bo'lib, bu turkumning 10 ta turi ma'lum va O'zbekistonda 2 ta turi manzarali daraxt sifatida ekiladi. Chinor daraxti uzoq umr ko'ruvchu daraxtlar guruhiga mansub bo'lib, u 500 yildan 2000 yilgacha umr ko'rishi mumkin. Barglari yirik, 5-7 bo'lmali, gullari bir jinsli. Mevasi yong'oq meva, sentabr- oktabr oylarida pishadi. Chinor urug'ini ekib, qalamchasidan va ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Chinorning yog'ochi yengil, pishiq, mebel sanoatida qadrlanadi. Uning yog'ochidan o'zbek me'morligida qadimdan foydalanib kelingan

Chinor (Platanus) — chinordoshlar oilasiga mansub barg to'kuvchi, yopiq urug'lilarning eng qadimiy turkumlaridan biri hisoblanadi. Bu turkumning 10 ta turi ma'lum.[1] O'zbekistonda manzarali chinorning har ikki turi o'sadi. Chinorlar tez o'sishi bilan ajralib turadi, 30—40 m balandlikkacha o'sib tekis rivojlangan tanasiga ega bo'ladi. Novdalari va barglari yoshligida tukli, keyinchalik tuklari to'kilib ketadi. Chinor serbarg o simlik, bargida yon bargchalari boladi. Barglari yirik, asosan, 3 (ba'zan 7) bo'lmali, shakliga ko'ra zarang barglariga o'xshash. Kurtagidan dastlab barg chiqadi, keyin gulga kiradi. Gullari bir jinsli, changchi guli sarg'ish boshchada, urug'chi guli qizil boshchada hosil bo'ladi. Shamol orqali changlanadi. Changchilari 3-4, ba'zan 7 ta gacha bo'ladi. Chinorlar bir uyli. Mevalari dumaloq, dag'al tukli yong'oqcha shaklida bo'lib, sentabr — oktabrda pishib yetiladi va bahorgacha daraxtda saqlanadi. Bahorda ular atrofga yoyilib shamol yordamida tarqaladi. [2] Chinor, ayniqsa, yoshligida tez o'sadi. Urug'lari mayda 1 kg urug'larida 140-150 ming dona urug' bo'ladi. Chinorlar 2000 yilcha umr ko'radi, tabiatda 500, 1000 yil yashagan chinorlar uchraydi. [3] Surxondaryo, Namangan va Samarqand viloyatlarida 600—800 yoshli chinorlar uchraydi.

Markaziy Osiyoda quyidagi chinor turlari tarqalgan. Shimoliy Amerika (Kanadadan Meksikagacha), Janubiy Sharqiy Yevropa va O'rta dengizbo'yi mamlakatlaridan Hindixitoygacha bo'lgan hududda tarqalgan. Kavkaz, Qrim, O'rta Osiyoda sharq chinori (*Platanus orientalis*), Janubiy Ukraina, Qora dengiz sohillari,



shuningdek, O'rta Osiyoda Shimoliy Amerikadan keltirilgan g'arb chinori (*Platanus occidentalis*) turlari o'stiriladi. Sharq chinori O'zbekiston Respublikasi «Qizil kitobi»ga kiritilgan. [4]

Chinor urug'ini ekib, qalamchasidan va ildiz bachkilaridan ko'paytiriladi. Chinorning yog'ochi yengil, pishiq, mebel sanoatida qadrlanadi. Uning yog'ochidan o'zbek me'morligida qadimdan foydalanib kelingan.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati;

- 1.O'. Prator, L.Shamsuliyeva, E. Sulaymonov, X.Axunov, K. Ibodov, V. mahmudov, Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika) Toshkeny-2010. 198- bet.
2. A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev "Dendrologiya" Toshkent-2012. 203-204-betlar.
3. Botanika (o'quv qo'llanma). Toshkent 2018. 224-bet
4. Tursunova Gulbahor Sultanova, Komilova Shoira Rafiqova Botanika asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent 2009. 69-70- betlar.
5. E.T. Berdiyev, SH.F. Gulamxodjayeva "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish" Toshkent 2020.
- 6.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 7.www. ziyouz.com kutubxonasi.

